RAQAMLI VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA TALABALARNING TURIZMGA OID VA O`QUV-BILUV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Amanbaev Timur Gayratbayevich
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Sirtqi ta'lim bo'limi dekani o'rinbosari

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviylashgan raqamli texnologiyalar yordamida talabalarning turizm sohasidagi o‘quv-biluv kompetensiyalarini shakllantirish masalasi o‘rganilgan. Maqola, raqamli vositalar va onlayn platformalarning ta'lim jarayoniga integratsiyasi orqali turizm sohasidagi ta'limning sifatini oshirish va talabalar kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlarini tahlil qiladi. Shuningdek, maqolada zamonaviy texnologiyalarning ta'lim metodologiyasidagi o‘rni, interaktiv platformalar va raqamli vositalar orqali talabalarga turizm sohasida kerakli bilim va ko‘nikmalarni berishning samarali usullari ko‘rib chiqilgan. Ushbu maqola turizm o‘qituvchilari, ta'lim muassasalari va talabalarga raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo‘llashning ahamiyatini va imkoniyatlarini ko‘rsatishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, turizm, ta'lim, kompetensiyalar, o‘quv-biluv, interaktiv platformalar, onlayn ta'lim, ta'lim metodologiyasi, talabalar, zamonaviy texnologiyalar.

Аннотация. В данной статье изучается вопрос формирования учебно-познавательных компетенций студентов в сфере туризма с помощью модернизированных цифровых технологий. В статье анализируются возможности повышения качества туристического образования и развития компетенций студентов за счет интеграции цифровых инструментов и онлайн-платформ в образовательный процесс. Также в статье рассматривается роль современных технологий в методике обучения, эффективные методы предоставления студентам необходимых знаний и навыков в сфере туризма посредством интерактивных платформ и цифровых инструментов. Целью данной статьи является показать преподавателям туризма, учебных заведений и студентов важность и возможности использования цифровых технологий в образовательном процессе.

Ключевые слова: цифровые технологии, туризм, образование, компетенции, обучение, интерактивные платформы, онлайн-образование, методика обучения, студенты, современные технологии.

ISSN 3030-3907

Abstract. This article examines the issue of forming students' learning competencies in the field of tourism using modern digital technologies. The article analyzes the possibilities of improving the quality of education in the field of tourism and developing students' competencies through the integration of digital tools and online platforms into the educational process. The article also examines the role of modern technologies in educational methodology, effective methods of providing students with the necessary knowledge and skills in the field of tourism through interactive platforms and digital tools. This article aims to show tourism teachers, educational institutions and students the importance and opportunities of using digital technologies in the educational process.

Keywords: digital technologies, tourism, education, competencies, learning, interactive platforms, online education, educational methodology, students, modern technologies.

KIRISH

Turizm sohasida ta'lim olish jarayonida talabalar nafaqat nazariy bilimlarni egallashi, balki amaliy ko‘nikmalarni ham rivojlantirishi zarur. Shu sababli, zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning turizmga oid bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning kelajakdagi professional faoliyatini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Jahonda ta’lim jarayonini samarali tashkil etishning eng ilg‘or texnologiyalarini qo‘llash asnosida raqamli ta’limga o‘tish jarayoni amalga oshirilmoqda. Google, Microsoft, WebSoft, Moodle kabi kompaniyalar zamonaviy ta’lim siyosatidagi bunday global o‘zgarishlarni ta’lim oluvchining talabi nuqtai nazaridan kelib chiqib tashkil etish va amalga oshirish hamda takomillashtirish masalalarini tadqiq etishmoqda. Shu boisdunyoda yangi raqamli ta’lim tizimi shakllanayotgan bir davrda raqamli texnologiyalardan bu jarayondagi eng muhim vazifani bajarishga mo‘ljallangan ob’ekt sifatida, shuningdek, virtual aloqani ommalashtirish, geografik joylashuvi hamda tilidan qat’iy nazar raqamli aloqa tezligi va erkinligini ta’minlash ob’ekti sifatida samarali foydalanish masalasini ilmiy hal etish zarur bo‘lmoqda.

Raqamli texnologiyalar ta'limda metodologik o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi, ular nafaqat o‘quv jarayonini samarali tashkil qilish imkoniyatlarini yaratmoqda, balki talabalarga interaktiv va innovatsion o‘qish metodlarini taklif etadi. Raqamli ta'lim tizimlarining asosiy afzalliklaridan biri bu ularning tezkor yangilanishi va barcha ma'lumotlarga onlayn kirish imkoniyatini yaratishidir. Boshqa tomondan, masofaviy ta'lim va onlayn kurslar, talabalar uchun o‘quv jarayonini geografik joylashuvdan qat'iy nazar ta'minlaydi. Bu, ayniqsa, turizm sohasida o‘qiyotgan

ISSN 3030-3907

talabalar uchun juda muhim, chunki ular turli joylardagi amaliyotlarga qatnashib, dunyo bo‘ylab turizmni o‘rganish imkoniga ega bo‘ladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm ta'limidagi zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo‘llash va ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi hozirgi kunda dolzarb mavzulardan biridir. Ushbu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar bir qator xorijiy va o‘zbek tadqiqotchilari tomonidan olib borilgan bo‘lib, ular ta'lim jarayonida raqamli vositalardan foydalanishning samaradorligini ko‘rsatmoqda.

Xorijiy manbalarga murojaat qiladigan bo‘lsak, Anderson va Dill o‘zlarining *Video o‘yinlar va agressiv fikrlar, tuyg‘ular va xatti-harakatlar laboratoriya va hayotda* nomli ishlarida video o‘yinlarning odamlarning agressiv fikrlarini va xatti-harakatlarini shakllantirishdagi rolini o‘rganadilar [1]. Ularning tadqiqoti, raqamli texnologiyalarning insonlarning ijtimoiy va psixologik jihatlarda qanday o‘zgarishlarga olib kelishini, shu jumladan ta'lim jarayonida ham qanday ahamiyatga ega bo‘lishini ko‘rsatadi. Bu masala raqamli texnologiyalarni turizm ta'limiga integratsiya qilishda e'tiborga olish zarur.

Bates tomonidan yozilgan *Texnologiya, e-o‘qish va masofaviy ta'lim* nomli asar raqamli texnologiyalarni ta'limga integratsiya qilishda yuzaga keladigan asosiy muammolarni va imkoniyatlarni tahlil qiladi [2]. Uning fikricha, masofaviy ta'lim va e-o‘qish tizimlari raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash imkonini beradi. Bu fikrni Garrison va Anderson o‘zlarining *XXI asrda e-o‘qish* asarida davom ettiradilar. Ularning fikriga ko‘ra, raqamli ta'lim tizimlari o‘quvchilarga har tomonlama bilim berish uchun keng imkoniyatlarni yaratadi.

Selwyn ta'lim va texnologiya masalasini o‘rganib, zamonaviy ta'lim tizimida texnologiyalarning roli va uning ta'lim jarayoniga ta'sirini o‘rganadi. Uning tadqiqotlari turizm kabi sohalarda raqamli texnologiyalarni qo‘llashda ta'limning yanada samarali bo‘lishini ta'minlash uchun zaruriyatlarni ko‘rsatadi [3].

Prensky esa *Raqamli originalar, raqamli muhojirlar* asarida, raqamli texnologiyalar bilan o‘sib-ulg‘aygan yoshlarni (raqamli originalar) va texnologiyalarga nisbatan an'anaviy uslublarda o‘qigan avlodni (raqamli muhojirlar) ajratib ko‘rsatadi. Ushbu tafovutlar ta'lim metodologiyasiga o‘zgarishlar kiritishni talab qiladi, ayniqsa turizm kabi sohalarda, bu farqlarni inobatga olish muhimdir [4].

O‘zbek tadqiqotchilari tomonidan amalga oshirilgan izlanishlar ham raqamli texnologiyalarning ta'limga qo‘llanilishining muhimligini ta'kidlaydi. Rasulova [6] o‘zining *Turizm sohasida ta'limni raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalar* asarida turizm ta'limida zamonaviy texnologiyalarning integratsiyasi orqali

ISSN 3030-3907

o‘quvchilarda yuqori darajadagi kompetensiyalarni shakllantirishning zarurligini ko‘rsatadi. Nurmatov va Ahtamov [7] tomonidan taqdim etilgan *Raqamli texnologiyalar yordamida turizm ta'limini rivojlantirish* nomli tadqiqotda esa, raqamli vositalar va onlayn ta'lim platformalarining turizm sohasidagi ta'limni yaxshilashdagi o‘rni va ahamiyati aniqlangan.

Tursunov va To'raeva [8] *Ta'limda innovatsion texnologiyalar: Turizm sohasida qo‘llanilishi* asarida, innovatsion texnologiyalarni turizm ta'limiga tatbiq qilishning samarali yo‘llarini o‘rganadilar. Ularning tahlili, raqamli texnologiyalarni turizm sohasidagi o‘qitishda ishlatishning samarali usullarini ko‘rsatib beradi.

Ismoilov [9] tomonidan yozilgan *O'quvchilarda raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda turizm fanlarining o'rni* asarida turizm ta'limida raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda muhim texnologik vositalar va metodlarni tahlil etadi. Xolmuhammedova [10] esa *Turizm sohasidagi raqamli texnologiyalar va ta'lim jarayonining integratsiyasi* asarida turizm sohasida raqamli texnologiyalarni qo‘llashning ta'lim jarayoniga ta'siri va uning o‘quvchilarning bilimlarini yaxshilashdagi o‘rni haqida gapiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Turizm sohasida raqamli texnologiyalarni qo‘llashning muhim yo‘nalishlaridan biri bu o‘quv jarayonining interaktivligini ta'minlashdir. Onlayn ta'lim platformalari, video darslar, virtual sayohatlar va 3D tasvirlar orqali talabalar turizm ob'ektlari haqida batafsil ma'lumot olishadi, shuningdek, virtual realitni (VR) yordamida turizmni boshqarish va o‘rganish tajribasini yaratish mumkin. Hozirgi kunda turizmni o‘rgatishda interaktiv platformalar, masalan, turistik ma'lumotlar bazalari, geografik axborot tizimlari (GIS) va turizm boshqaruvi dasturlari talabalarga amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda katta yordam beradi.

Zamonaviy raqamli texnologiyalarni ta'limda qo‘llash, o‘quvchilarda raqamli kompetensiyalarni shakllantirishga imkon yaratadi. O‘quvchilarda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish nafaqat bilimlarni o‘zlashtirish, balki axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish ko‘nikmalarini ham rivojlantirishni nazarda tutadi. Turizm sohasida talabalar axborot texnologiyalari va raqamli vositalardan foydalanishni o‘rganish orqali, turizmni rivojlantirishga, xizmatlarni boshqarishga, turistik mahsulotlarni targ‘ib qilishga oid amaliy ko‘nikmalarni egallaydilar.

Respublikamizda ta’lim tizimini raqamli texnologiyalar asosida modernizatsiyalash uchun rivojlangan davlatlarning nufuzli oliy ta’limmuassasalari filiallari, qo‘shma fakultetlari, qo‘shma ta’lim markazlari tashkil etilmoqda va ularning moddiy texnik bazasi yaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi

ISSN 3030-3907

Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmonida “ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish, ta’lim jarayonlarida “bulutlitexnologiyalardan” foydalanish”, tizimda faoliyat olib borayotgan pedagoglar oldiga talabalarni kelajakda o‘z kasbining yetuk mutaxassislari bo‘lib, mamlakatimizning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilashga hamda rivojlantirishga zamin yaratuvchi shaxslar sifatida tarbiyalash vazifalari belgilab berilgan.

Raqamli ta’limni tashkil etish jarayonida metodik ta’minot bir butuntizim sifatida shakllanib, unda ta’lim jarayoni ilmiy asoslangan o‘quv materiallari asosida rejalashtirishga, talabalarni nazariy va amaliy tayyorlashning birligi va (flipped classroom) bir-biriga o‘tishi ta’minlanishiga, o‘quv materialini o‘rganish sur’ati tezlashishiga, ta’limning maksimal faolligi va yetarlicha mustaqilligiga, talabalar shaxsiy va jamoaviy ishlarni bajarishda birikishiga, o‘quv jarayoni ta’limning zamonaviy texnik vositalari bilan ta’minlanishiga, ta’limning turli predmetlarini integratsiyalashuviga erishildi.

Raqamli texnologiyalar asosida talabalarning o‘quv-biluv faoliyatini takomillashtiruvchi mobil ilova ishlab chiqish tamoyillarida, asosan, quyidagi xususiyatlarga e’tibor qaratilgan:

✓ murakkab hodisalar va jarayonlarni real hayotda tasavvur qilishga yordam berishi;

✓ ovoz, grafika, matn kabi axborotlar tartiblangan ketma-ketlikda sinxron ko‘rinishda foydalanilishi;

✓ mobil ta’lim materialining tuzilishi o‘quv dasturining maqsadi va mazmuniga mos kelishi, matnli, vizual va audio taqdimot materiallarining pedagogik-psixologik talabga javob berishi;

✓ mobil ta’lim materiali shaxs nomidan identifikatsiya raqami orqali ifodalanishi;

✓ gipermatn orqali bog‘lanishlarni va har qanday ma’lumotlarni osonroq topishlari uchun qulayliklar mavjud bo‘lishi lozim.

Raqamli ta’limni tashkil etadigan mobil ilova talabalar uchun:

o raqamli ta’limda shaxsni tasdiqlovchi identifikatsiyaga ega bo‘lishi; mavzularini matn, video, animatsiyalar yordamida smartfon va planshetlardan foydalanib onlayn va offlayn o‘rganish;

ISSN 3030-3907

- guruhning har bir talabasi fanning mavzusiga mos test, krossvord savollariga individual javob berishi va onlayn baholanishi;
- har bir mavzuga mos nazariy ma'lumotlarni, ta'rif va tushunchalarni, atamalarning izohli lug'at yordamida onlayn o'rganishi;
- chat, forum yordamida fan o'qituvchi va boshqa talabalar bilan ma'lumot almashish imkoniyati;
- amaliy va laboratoriya topshiriqlarini bajarilganligini masofaviy onlayn baholanishi;
- anketa-so'rov yordamida, guruhning har bir a'zosi dars o'tuvchi o'qituvchining yutuqlari va kamchiliklari haqida o'z fikrini bildirishi.
- Raqamli ta'limni tashkil etadigan mobil ilova o'qituvchi uchun: raqamli ta'limda shaxsni tasdiqlovchi identifikatsiya nazoratini olib
- borish;
- o'quv mashg'ulotlarini olib borishda interfaol usullardan foydalanishi va vebinarlar asosida onlayn olib borish;
- talabalar bilimini doimiy onlayn nazorat qilish;
- chat, forum va elektron pochta yordamida o'qituvchi hamkasblar va talabalar bilan onlayn ma'lumot almashinish imkoniyati;
- amaliy va laboratoriya topshiriqlarini yangilab borish, bajarilish jarayonini onlayn baholash;
- har bir mavzuga mos nazariy ma'lumotlarni, ta'rif va tushunchalarni, atamalarning izohli lug'atini onlayn yangilab borish imkoniyatlarini yaratadi.

Insoniyat svilizatsiyasining quyi bosqichlarida shaxsni tarbiyalash, unga ta'lim berishga yo'naltirilgan faoliyat sodda, juda oddiy talablar asosida tashkil etilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan o'ta qat'iy hamda murakkab talablar qo'yilmoqda. Chunonchi murakkab texnika bilan ishlay oladigan, ishlab chiqarish jarayonining mohiyatini to'laqonli anglash imkoniyatiga ega, favqulotda ro'y beruvchi vaziyatlarda ham yuzaga kelgan muammolarni ijobiy hal etuvchi malakali mutaxasisni tayyorlashga bo'lgan ijtimoiy extiyoj ta'lim jarayonini texnologik yondoshuv asosida tashkil etishni taqazo etmoqda.

Hozirgi paytda, fan va madaniyatning eng so'nggi yutuqlari asosida kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nihoyatda zarurdir. Mamlakatimiz rivojlanishining muhim sharti zamonaviy iqtisodiyot, fan-texnika, texnologiyalar rivoji asosida kadrlar

ISSN 3030-3907

tayyorlashning takomillashgan tizimning amal qilishga erishishdan iboratdir. Pedagogika fanida kun tartibiga «qanday qilib samarali va natijali o‘qitish kerak?», -shaklida muammosining qo‘yilishi ta’lim jarayonining texnologiyalashtirilishiga, ya’ni o‘qitishning kafolatlangan natijaga olib keluvchi texnologik jarayonga aylantirilishiga olib keldi. Pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishi ta’limni samaradorligini oshirish, ta’lim oluvchi shaxsining ta’lim markazida bo‘lishi va mustaqil bilim olishini ta’minlash, o‘qitishning faoliyatli, rivojlantiruvchan, tashxislanuvchan va natijali bo‘lishiga xizmat qiladi.

Keng ko‘lamda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari ta’limning ilg‘or texnologiyalarini o‘rganish va o‘quv - tarbiya jarayoniga joriy etishni taqozo qiladi. Bu o‘z navbatida pedagog xodimlardan ta’lim sohasiga texnologik yondashuvni, pedagogik texnologiya usulini egallashni pedagogik amaliyotda qo‘llash va rivojlantirishni talab etadi.

Texnologik yondashuv mavjud an’anaviy o‘quv jarayoniga faqat- kompleks tarzdagina emas, pedagoglar tomonidan o‘zlashtirilishi.metodik qo‘llanmalar, o‘quv-moddiy baza yaratilishiga qarab borqichma-bosqich, ayrim elementlari amalga oshirilaverishi ham mumkin. Bu birinchi navbatda pedagogik texnologiyaning muhim qismi - predmetlar va mavzular bo‘yicha ta’lim maqsadlarini aniqlash usullariga taalluqlidir.

Zamonaviy o‘qitish metodlaridan foydalanish o‘quvchilarning o‘quv bilish faoliyatini, o‘z-o‘zini o‘qitish jarayonini uzviy bog‘liq ravishda rivojlantiradi. Mavzu bo‘yicha mukammal bilimlarga ega bo‘lish imkoniyatini yaratadi va darslarda o‘quvchi mustaqil fikrlashni, o‘z fikrini erkin bayon qilishni, boshqalarning fikrini eshitishni va xulosa chiqarishni o‘rgatadi.

NATIJALAR

Ta’limning amalga oshirish jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni kiritish quyidagilarga asoslanadi:

-ta’lim jarayonida ishtirok etuvchi o‘quvchi shaxsi ustivorligini ta’minlash;

- ta’lim maqsadining natijaga erishuvini (kafolatlanganligini) amalga oshirish;

- ta’lim jarayoni boshqariluvchi jarayon ekanligidan kelib chiqqan holda uning maqsadli boshqariluviga erishish;

- ta’lim mazmunini ta’minlovchi vosita, usul shakllari texnologiyasini yagona bir tizimga keltirish.

Ilg‘or pedagogik texnologiyalar yordamida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda

ISSN 3030-3907

o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, mavzuni o‘rganishda mavjud manbalardan to‘g‘ri foydalanishga va erkin mulohaza yuritishga imkoniyat yaratiladi. Shuningdek, o‘quvchilarning darsga qiziqishlarini oshirishga imkoniyat yaratiladi. O‘qituvchi darsda kuzatuvchi, boshqaruvchi vazifasini bajaradi. U darsga tayyorgarlik jarayonida izlanish, o‘rganish, yaratish orqali o‘z ustida tinimsiz ishlaydi. Bunday darslarda vaqtdan unumli foydalanish, maqsadga samarali erishish imkoniyati katta. Shu sababli bunday texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tadbiq etish o‘qituvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi.

“Ishbop o‘yin ”metodi.

“Ishbop o‘yin ”-berilgan topshiriqlarga ko‘ra yoki o‘yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har-xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishni imitatsiya qilish metodi hisoblanadi. O‘yin faoliyati biror bir tashkilot sifatida ishtirok etayotgan ishtirokchining xulq-atvori va ijtimoiy vazifalarini imitaqiya etish orqali beriladi. Bir tomondan o‘yin nazorat qilinsa, ikkinchi tomondan oraliq natijalarga ko‘ra ishtirokchilar o‘z faoliyatlarini o‘zgartirish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi. Shuning uchun ham vazifani bajarish jarayoni individual-guruhli xarakterga ega. Har bir ishtirokchi avval o‘zining vazifasi bo‘yicha qaror qabul qiladi, so‘ngra guruh bilan maslahatlashadi. Ushbu shaxsiy vazifa bo‘yicha maqsadga erishish butun guruh a’zolari erishgan natijalarga bog‘liqdir. O‘yin yakunida har bir ishtirokchi va guruh erishgan natijalariga qarab baholanadi.

“Ajurli arra” texnologiyasi

“Ajurli arra” (fransuzcha “ajour” – “bir yoqdan ikkinchi yoqqa o‘tgan, ikki tomoni ochiq”) metodi o‘quvchi (talaba)larga yaxlit muayyan mavzuni bir nechta qismlarga ajratish orqali mohiyatini yoritish imkonini beradi. Talabalar tayyor matnlar bilan ishlaydilar. Metodni qo‘llash tartibi:

1) o‘qituvchi o‘quvchilarni metod mohiyati bilan tanishtiradi;
2) ularni guruhlarga ajratadi;
3) o‘zlashtiriladigan material matni bir nechta qismlarga ajratiladi;
4) matnli materiallar joylashtirilgan paket guruhlarga tarqatiladi;
5) guruhlar matnlardan foydalanib, topshiriqni bajaradilar;
6) topshiriq bajarilgach, turli guruhlardan matnni yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchilardan iborat ekspertlar guruhi shakllantiriladi;
7) ekspert guruhi a’zolari o‘zlari o‘zlashtirgan material mazmunini boshqalarga yetkazish rejasini tuzadilar;
8) ekspertlar guruhi a’zolari o‘zlari o‘zlashtirgan material mazmunini

ISSN 3030-3907

boshqa guruhlarga ham o‘rgatadilar.

Natijada umumiy mavzuni yaxlitligi bo‘yicha o‘zlashtirish ta’minlanadi. Ekspertlar guruhining har bir a’zosi olingan axborotni ma’lum bir vaziyatda qo‘llay olishini ta’minlash uchun mavzu bo‘yicha biror muammoli vaziyat guruhlarga beriladi va har bir guruh ushbu muammoni to‘g‘ri yechimini topishi lozim. Muammo har bir ekspert guruhida muhokamadan o‘tkazilgach guruhlarning sardorlari muammo bilan guruhni tanishtiradi va uning yechimini ko‘rsatib beradi. Mashg‘ulot so‘ngida o‘quvchilar bilimini tekshirib ko‘rish va baholash uchun o‘rganilgan material bo‘yicha ekspress test o‘tkaziladi. Ajurli arra usuli yordamida o‘quvchilar o‘rganiladigan material bo‘yicha ma’lum bilimga mustaqil ega bo‘lishi, jamoa bilan ishlash malakasini olishi, axborot bilan almashish hamda jamoa bo‘lib qaror qabul qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

Idrok xaritasi metodi.

Idrok xaritasi metodi mavzu yoki o‘quv materialini grafikli bayon etish usuli bo‘lib, axborotlarni tizimli, tartibli va vizual o‘zlashtirish imkonini beradi. Idrok xaritasi texnologik jarayonlarni amalga oshiruvchi murakkab tuzilmaga ega texnik qurilmalar qismlarining bir-biriga sabab oqibatli bog‘liqligini namoyish etish, ularni xotirada mukammal saqlab qolish, tizimlashtirishda samarali omil hisoblaadi. Unda tarmoq qancha ko‘p bo‘lsa, bu o‘quv materialini batafsil tahlil etish, birinchi darajali o‘quv materialigi imkon qadar diqqat-e’tibor qaratilishini oldindan belgilab olish imkonini beradi. Boshqacha aytganda idrok xaritasi metodi kafolatlangan yakuniy natijani berish imkoniga ega.

- Qo‘llanilish maqsadi va shakli: ma’ruza mashg‘ulotlarida - yangi bilimlarni bayon qilish, jamoaviy;
- seminar mashg‘ulotlarida bilimlarni tekshirish, mustahkamlash, kichik guruhlarda;
- mustaqil ta’limda – ijodiy ishlash, mantiqiy fikrlash malakalarini rivojlantirish, individual;

“T-jadval”.

“T-jadval” graforganayzeri o‘rganilayotgan mavzu yoki masalaning muayyan jihatini yoritish maqsadida bir necha asosiy belgi, tayanch tushunchalarning mazmuni ularni bir-biri bilan o‘zaro solishtirish, qiyoslash asosida ochib beriladi. Ko‘p hollarda mazkur texnologiya mavzu asosini tashkil etuvchi bir necha holatlarning afzalliklari yoki kamchiliklarini, samaradorlik va samarasizlik darajasini, bugungi kun va istiqbol uchun ahamiyatini taqqoslash

ISSN 3030-3907

maqsadida qo‘llaniladi. Usulni qo‘llash tartibi:

1) talabalar e’tiboriga o‘rganiladigan mavzu, masala yoki topshiriq havola etiladi;

2) talabalar “T-jadval” metodini qo‘llash shartlari bilan tanishtiriladilar;

3) talabalar guruhlarga biriktiriladilar;

4) ajratilgan vaqt oralig‘ida guruh (juft)liklar jadval shaklida berilgan topshiriq mohiyatiga ko‘ra qiyosiy taqqoslashni amalga oshiradi, ya’ni jadvalning chap va o‘ng tomonlariga masalaning bir-biriga zid holatlarni bayon etadilar;

5) guruhlar tomonidan to‘ldirilgan jadvallar o‘zaro solishtiriladi;

6) masalaning yechimi yuzasidan yakuniy xulosaga kelinib, yagona “T-jadval” shakllantiriladi.

Ushbu texnologiyalar yordamida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda talabalarning mustaqil fikrlashi, mavzuni o‘rganishda mavjud manbalardan to‘g‘ri foydalanishi va erkin mulohaza yuritish, maqsadga samarali erishish imkoniyati katta.

XULOSA VA MUNOZARA

Zamonaviy raqamli texnologiyalar ta'lim jarayoniga katta ta'sir ko‘rsatadi va turizm sohasida talabalar kompetensiyalarini shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Onlayn ta'lim platformalari, virtual sayohatlar, GIS tizimlari va boshqa raqamli vositalar talabalarga turizmni o‘rganishda yanada interaktiv va samarali imkoniyatlarni yaratadi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham rivojlantirishga yordam beradi. Kelajakda raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayonida yanada kengroq qo‘llash, turizm sohasida sifatli va malakali kadrlar tayyorlashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Ando‘, C. A., va Dill, K. E. (2000). Video o‘yinlar va agressiv fikrlar, tuyg‘ular va xatti-harakatlar laboratoriya va hayotda. Personallik va Ijtimoiy Psixologiya Jurnali, 78(4), 772-790.

2. Beyts, T. (2005). Texnologiya, e-o‘qish va masofaviy ta'lim. Routledge.

3. Selvin, N. (2011). Ta'lim va texnologiya: Asosiy masalalar va muhokamalar. Continuum.

4. Prenski, M. (2001). Raqamli originalar, raqamli muhojirlar. Gorizontdagi on, 9(5), 1-6.

ISSN 3030-3907

5. Garrison, D. R., va Anderson, T. (2003). XXI asrda e-o‘qish: Tadqiqot va amaliyot uchun doiraviy ramka. Routledge.

6. Rasulova, O. M. (2022). Turizm sohasida ta'limni raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalar. O‘zbekiston Ta'limi, 15(2), 33-37.

7. Nurmatov, M. S., & Ahtamov, D. Z. (2023). Raqamli texnologiyalar yordamida turizm ta'limini rivojlantirish. Journal of Pedagogical Innovations, 12(7), 45-50.

8. Tursunov, R. B., & To'raeva, D. K. (2021). Ta'limda innovatsion texnologiyalar: Turizm sohasida qo'llanilishi. O‘zbekiston Ta'limi va Fan, 10(3), 22-27.

9. Ismoilov, M. S. (2023). O'quvchilarda raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda turizm fanlarining o'rni. Ta'lim va Innovatsiyalar, 9(4), 98-104.

10. Xolmuhammedova, S. (2022). Turizm sohasidagi raqamli texnologiyalar va ta'lim jarayonining integratsiyasi. Journal of Modern Education, 7(5), 15-22.

ISSN 3030-3907